# KEKSALIK DAVRIDAGI INSONLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING FIZIOLOGIK JARAYONLARGA BOG‘LIQLIGI.

**ADPI logopediya yo‘nalishi Ne’matullayeva Ruxshona**

**Annotatsiya:** Maqolada ijtimoiylashuv jarayonida keksalik davrining o‘ziga xos psixologik va fiziologik xususiyatlari va ularning bir-biriga bog‘liqligi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘z:** gerontopsixologiya, psixika, uzoq muddatli xotira, affiliatsiya, ontogenez

Millatimizga xos asrlar osha avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlarimiz, urf odatlarimiz insoniy munosabatlarimizdan biri Yoshi ulug‘ keksalarimizni ezozlab ularga xurmat ko‘rsatishimizdir. Keksalar hayotning shirin achchiq onlarini totgan donishmandlari xisoblanadilar. Bu davrga kelib jismoniy zaiflashuvi quvvatning pasayishi, inson psixologik jarayonlarida asta sekinlik bilan yo‘q kuchsizlanish jarayoni kuzatila boshlaydi. Bu birinchi navbatda xotirada zaiflashuvi bilan namoyon bo‘ladi. Keksalik davrida mexanik xotira sustlashib so‘z mantiq xotirasi saqlanib qoladi.

Keksayish davriga 61-74 yoshli yoshli erkak va ayollar kiradi. Bu davrga kelib keksalarda biologik organlarda o‘zgarishlar sodir bo‘ladi zaiflashuvga olib keladi. Psixik jihatdan ham birmuncha o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. ruhiy tomonlama bo‘ladigan holatlar keksalik davrida ayollarda erta boshlanib ketadi. Keksa insonlarda sezgi organlari zaiflashuvi asab sistemasining kuchsizligi xotira pasayishi va shunga o‘xshash holatlar yuz beradi. B.A.Grekov so‘z assotsiatsiyasi metodi asosida keksalarda xotira jarayonining xususiyatini tekshirgan. Uning ma’lumotlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. 70-80 yoshlardagi keksalikda xotira (ayniqsa mexanik esda olib qolish) zaiflashadi
2. 70-89 yoshlarda mantiqiy ma’noli xotirada miqdorning ahamiyati saqlanadi.
3. Obrazli xotira zaiflashadi.
4. 70-89 yoshlarda xotiraning barqarorlik negizida ma’noning ichki aloqasi yotadi.
5. Uzoq muddatli xotira kuchsizlanadi.
6. 90 yoshda nutqning ichki bog‘lanishi buziladi.
7. Xotiraning obrazli hissiy turlari nutqning tuzilishiga bo‘ysunmay qoladi. 1.24bet]

Keksalik davrida insonda yangi sifatlar shakllar paydo bo‘ladi. Er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar oldingiga nisbatan mustahkam ko‘rinishga ega bo‘ladi da miyadagi xotiralar sustlashsa ham kasbiy xotira izi uzoq turadi. "Normal fiziologik qarash yuz beradi a'zolardagi asosiy to‘qimalar atrofiyaga uchraydi ya’ni nobud bo‘ladi jarayon avvalo miyadan boshlanadi."[2.2-bet]. Undagi 17-22 foiz to‘qimalar qisqarib boradi keyin esa oshqozon qizil ungach 12 barmoqli ichak o‘t pufagi oshqozon osti va buyraklaridagi 11-30foiz bir o‘zi 5xil vazifani bajaradigan jigardagi 12-14 foiz to‘qimalarda atrofiya yuzaga keladi. Bundan kelib chiqib insonlarning reaktiv va funksional ya'ni vazifaviy imkoniyatlari dan pasayadi. Qarilar va keksalarida vaqt o‘tib yurak urishi sekin pasayib boradi. Yurak qisqarishning tezlashishi qon aylanishda sodir bo‘ladigan jarayonlar og‘ir xastaliklarga olib keladi.

Keksayish davrida tanada suv miqdori ham kamayadi tana vaznida yengillashish hodisasi ham kuzatilishi mumkin likda uyquning me'yori ham buziladi keksalik inson yoshining so‘ngi bosqichi bo‘lib boshlash jarayoni bilan kechadi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda insonning keksalik davri 75 yoshdan so‘ng boshlanishi qayd etilgan bo‘lsa-da shayxur yrais ibn sino keksalikning chegarasi 59 yoshdan deb baholagan. Insonning qarish surati va individual xosligi ham bitta odamda nasliy omillar va atrof muhitni ta'siri bilan chambarchas.[3.Ziyouz.kom] Qarilikda insonlarning ko‘p qismida ruhiy jihatdan sayflashuv ham sodir bo‘ladi bu davrda katta insonlarda o‘z shaxsiyatiga yangicha munosabatlar paydo bo‘ladi. G.Leman bastakor I.S.Bax (1685-1850) ijodiyotini tekshirib uning durdona asarlari keksalikda yaratilganini aniqlangan.G.Leman o‘z tajribalarida huquqshunoslik kasblaridagi shaxslarni o‘rganab ular ijodiyotini muhim jihatlarini ochib bergan.[4.242bet].

Yosh o‘tishi bilan keksalik davridagi jismoniy quvvat va psixik jarayonlar faoliayati yoshlikdagi faolligi bilan solishtirganda birmuncha farq qiladi ya’ni keksalik davridagi psixik va jismoniy faollik pasayib boradi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga asoslanib, donishmandlik keksalarimizni asrab-avaylash, ularga mehr-muruvvat ko‘rsatish, ijtimoiylashuv jarayonida ularni jamiyatdan ajratmagan xolda qadrlash lozim ekanligini bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.E.G‘oziyev.Ontogenez Psixologiyasi.Toshkent "NIF MSH" 2020

2.Ergasheva M.Keksalik davrining biologik xususiyatlari.

https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/3074/2039

3.Ziyouz.com

4.Ergash G‘oziyev. Ontogenez Psixologiyasi.Toshkent"NIF MSH"2020